

O‘ZBEK ANIMASIYA SAN’ATIDA MAVZUR MAHMUDOV IJODI

NIGORA TOXIRJONOVNA XAYDAROVA

dosenti, s.f.f.d (PhD)

Milliy rassomlik va dizayn instituti

Toshkent, O‘zbekiston

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V4-I5-4>

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek multiplikatsiyani jahonga tanitgan etuk iste’dod egasi Mavzur Mahmudovning ijodiy izlanishlari natijasida yaratilgan multiplikasion filmlari tahlil etilgan. Shuningdek, ijodkorning xalqaro kino festivallarda munosib o‘ringa ega bo‘lgan filmlari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: multiplikasiya, tasvir, ssenariy, personaj, syujet, kolorit, ritm, kadr.

KIRISH

Multiplikatsion filmlar kino san’atining kichik bir turi bo‘lsada, jahon kino san’ati bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, ushbu san’at aka-uka Lyumerlarning kino kashfiyotidan ancha avval paydo bo‘lgan. Uning boshlanishi ibtidoiy san’atning eng qadimgi davrlarini nazarda tutib, tosh o‘ymakorligida birinchi bor rassomlar tomonidan harakatdagi tasvirlar yaratilgan. Harakatli tasvirlar haqida A.A.Volkov asarida shunday keltiriladi: “Eramizdan avvalgi 70-yillarda Rim shoiri va faylasufi Tit Lukresiy Kar “Buyumlarning tabiati haqida” ilmiy asarida “ekranda harakatlanayotgan tasvirlarning yorug‘likka moslashuvi ta’riflangan” [1.16]. Bundan ko‘rinib turibdiki, harakatli tasvirlar ancha yil avval paydo bo‘lgani asoslangan. Bu san’at turining paydo bo‘lishi, rivojlanishi va uning turli jihatlarini haqida dunyo tadqiqotchilari tomonidan ko‘plab izlanishlar olib borilgan. Mashhur kino nazariyotchisi I.Vaysfeld animasiya san’ati kinoga qaraganda ko‘proq jihatlariga ega ekanligini ta’kidlaydi [2.17]. U tomoshabinga jismoniy harakatning tasodifiy jihatlarini, allegorik va ramziy konstruksiyaning muhimligini, mavhum va birlashtiruvchi fikrlar ahamiyatini anglashga yordam berishi haqida keltiradi. Kinoning barcha turlari o‘ziga xos ifodaviy vositalari bilan, mavzu va materiali bilan farq qilsa-da, ko‘pincha qat’iy chegaralarga amal qilinmaydi. Badiiy filmda xronika kadrlaridan, multiplikatsiyada esa ko‘pincha badiiy kino vositalaridan foydalaniladi [3.11].


ASOSIY QISM

O‘zbekistonda ilk yaratilgan multiplikatsion film haqida san’atshunoslik fanlari nomzodi, kinoshunos, M.Mirzamuxamedova “O‘zbekistonda bolalar kinosi” monografiyasida shunday keltiradi: “6x6 kvadratida” filmdan chuqur falsafiy xulosalar chiqarib bo‘lmaydi. Lekin ular ertaknamo, shartlilik, umuminsoniylik kabi multiplikatsiyaning tasviriy vositalaridan unumli foydalana odilarki, natijada fikr ochiq oydin, tushunarli bayon etildi [4.42]. O‘zbekistonda multiplikatsiya san’atining shakllanishi va uni rivojlanishida samarali ijod qilayotgan tasvir ustasi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi M.Mahmudov alohida e’tiborga molik. O‘zbek multiplikatsiyani dunyoga tanitgan, buyuk iste’dod egasi M.Mahmudov

Rossiyaning Butunittifoq Davlat Kinematografiya institutida (1976) multiplikasiya san’atining sir-asrorlarni mashhur rus rejissyor-multiplikator I.Ivanov-Vano rahbarligida o‘rganib, o‘zbek multiplikatsiyada ijodiy faoliyatini boshlagan. Bu davrda animasion filmlar yaratish Kiev ilmiy-ommabop filmlar studiyasi qoshidagi multistudiya yoki “Soyuzmultfilm” studiyalarining mutaxassislari bilan xamkorlikda yaratilib kelingan. Lekin ijodkor M.Mahmudovning uzoq yillik ta’lim va tajribalari natijasida o‘zbek multiplikatsiyada mustaqil holda ilk chizma texnologiyada “Lochin va Yulduz haqida ballada” (o‘zbek shoirasi jahon Otin Uvaysiy she’rlari asosida, 1978) debyut filmi yaratildi. Shuningdek, bu davrda multiplikatsion filmlarning mavzusi, tasviriy ifoda uslubi va texnologiyalari yangi ko‘rinishlarda talqin etildi. M.Mahmudovning eng murakkab texnologik jarayonda yaratilgan asari alohida diqqatga sazovordir. Tasvir ustasi o‘zbek multiplikatsion filmlar texnologiyalari orasiga qiziqarli va o‘ziga xos qonun-qoidalarga ega prekladka texnologiyasida asar yaratishga erishdi.



1980 yillarda multibirlashma juda mushkul ahvolga tushib, chizma filmda qo‘llaniladigan ashyolar (selluloid, kerakli bo‘yoqlar va jihozlar)ning tanqisligi sababli studiyada ish og‘ir kechdi. Bu davrni yodga olib, ijodkor M.Mahmudov shunday deydi: “Aynan shu vaqt vaziyatdan chiqish yo‘lini izlab yurgan edim. Shunda teleekran orqali ukrainalik rejissyor D.Cherkasskiyning “Kapitan Vrungelning sarguzashtlari” filmi ko‘rib, zudlik bilan Kiev “Ilmiy-ommabop filmlar studiyasi” qoshidagi multistudiya filmining yaratilish jarayoni bilan tanishdim” [5].



1920-yillar oxirlarida amerikalik multiplikatorlarning selluloidni qo'llab, uzulksiz texnologiyaga o'tishlari butun dunyo multiplikasiya san'atida keng tarqaldi va rivojlanishiga zamin yaratdi. 1930-yillarning o'talarigacha Rossiya multiplikatorlari chizma multfilmlar ishlab chiqarishda qog'ozdan foydalangan. Shu bois u erda qog'oz qo'g'irchoqlarni yaratish texnikasi taraqqiy etgan. Perekkladka texnologiyasida suratga olingan animasion filmlarda, avvalo rassom ijodi yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu usulda yaratilgan animasion filmlar rangli manzara, qahramonlarning ko'rkam qiyofasi va jozibali talqinga ega. Ijodkor M.Mahmudov bu texnologiyaning sirsrorlarini o'zlashtirish natijasida mamlakatimizda yumorga boy, komediya janridagi "Xoja Nasriddin" (1982) ilk perekkladka filmini yaratishga muvaffaq bo'ldi.

Shuningdek, animasiya yosh avlod badiiy va estetik tarbiyasida, dunyoqarash kengligini shakllantirishda, milliy istiqlol g'oyalarini tarannum etishda cheksiz imkoniyatlarga egadir [6.240]. Shu jihatdan mustaqillik davrining ilk yillarida yaratilgan asarlar e'tiborga molik. Shulardan biri rejissyor-rassom M.Mahmudovning "Baxtli shahzoda" (1992) kartinasidir. Ushbu film XIX asr ikkinchi yarmida yashab ijod qilgan angliyalik yozuvchi Oskar Uayldning hikoyasi asosida perekkladka uslubida yaratilgan. Mazkur film ikki qismdan iborat bo'lib, unda insoniylik his-tuyg'ulari etakchilik qiladi. Asar personajlarining hayajoni, o'y-kechinmalari va ruhiyati kuchli talqin etilgan.

Kartina aks etgan syujet va personajlar ilk kadrdayoq o'ta ta'sirchan tasviriy ifodaga ega. Sababi tushkunlik, mayuslik va insonga mehr, yordam bera olish tuyg'ularini his etuvchi ranglar (oxra, sariq, qizg'ish jigarrang) bilan boyitilganligi yaqqol ko'rinadi. Ilk sahnaning birinchi planida tasvirlangan bosh personaj hayotdan erta so'ngan shohning o'g'li shahzodaga atab yaratilgan haykal bo'lib, u shahar maydonining markaziga o'rnatiladi. Qasrda bir vaqtlar to'kin-sochinlikda sho'x-shodon o'ynab, g'am-qayg'u, qiyinchilik, muhtojlikni bilmay yashagan shahzoda haykal ko'rinishida o'rnatilganidan so'ng, shahardagi barcha insonlarni birma-bir kuzatgan holda sodir bo'layotgan voqealardan xulosa chiqaradi. Kadrlar ketma-ketligida aks etgan tasvir turli rakurslarda namoyon etilib, kuchli dinamik voqelarga ega. Asar voqelari rivojida shahzodaning rahmdilligi sababli haykalning oltin yaproqlari insonlarga ko'mak berishga xizmat qilishi natijasida haykalning tashqi ko'rinishi aslini yo'qotib boradi. Muallif personajning asta-sekin

qurib borishini o'ziga xos tasviriy ko'rinish va xarakter orqali jonli va ta'sirchan ifodalagan. Haykalning ruhiy holatini, o'y-kechinmalari, his xayajonini ro'yobga chiqarishda muallif nozik va beozor qalb egasi bo'lgan qaldirg'och obrazini yordamchi personaj sifatida qo'llaydi. Asar qahramonlarining xatti-harakatini kuzatish jarayonida ijodkorlar bu film orqali har bir inson o'y-kechinmalari, his-tuyg'ulari shu qadar kuchli va ta'sirchan ekanligini ko'rsatishni niyat qilganliklarini anglaysiz.

Mazkur film rus tilida talqin etilgan bo'lsada, asar qahramoni milliy xarakter egasi sifatida ifodalangan. Kadrlar bir tUSDagi koloritda tasvirlangan bo'lsada, ijodkor insonlarga qiyinchilik davrida ko'mak berish, mushkulini oson qilish kabi his-tuyg'ularni personajlarning xakteri va harakatlarida yuksak mahorat bilan yoritib bergan. Yozuvchi Oskar Uayld o'zining ta'sirchan hikoyasida bu kabi jihatlarni yoritib berishga xarakat qilgan bo'lsa, kartina mualliflari asarni yanada jonli chiqishini ta'minlaganlar. Rahdil qalb haqidagi ta'sirchan bu film O'zbekiston kino arboblari uyushmasining Grifon mukofotiga (1993) munosib ko'riladi.



Ijodkorlarga berilgan yuksak e'tibor keyinchalik yana bir qator filmlarni yaratilishiga turtki bo'ldi. O'zbek animasiya san'ati dovrug'ini olamga taratgan mahorat egasi M.Mahmudov iqtidorli rassom M.Qoraboev bilan hamkorlikda "Bulbul" (1999) filmini ekranlashtirdi. Unga XIX asrda yashab, ijod etgan daniyalik yozuvchi G.X.Andersenning shu nomli ertagini asos qilib oldi. Ijodkor mazkur ertak asosida ssenariy yozib, uning ba'zi bir syujetlarini o'zgartiradi. Ertakda Xitoy imperatorining saroyida bo'lib o'tgan voqea filmda Markaziy Osiyo muhitida talqin etiladi. Filmning maqsadi har doim ham ezgulikka intilish yasama tashqi go'zallik emas, balki haqiqiy ichki go'zallik ekanligini isbotlashdan iboratdir.



Film voqealari podshoh saroyida ro'y berib, personajlarning tasviriy ko'rinishi sharq miniatyurasi uslubida ishlangan. Rassom ularning liboslarini saroy ayonlariga xos ko'rinishda yorqin koloritda ifoda etgan. Ayniqsa, film bosh qahramoni haqqoniy, jonli "bulbul"ning emas, balki yasama, ko'zni qamashtirgudek o'yinchoq kabi soxta yasalgan "bulbul" atrofida shoh va uning vazirlari mahliyo bo'lgan vaqtda kadrdagi ritm o'zaro mutanosiblikda yoritib berilgan. O'lim to'shagida yotgan shohning dardiga darmon bo'la olmagan va quvvati etmagan yasama bulbuldan ko'ngli qoladi. Umidsizlikka tushgan vaqtda jonli "bulbul"ning yoqimli ovozi tinglab, unga talpinadi. Ushbu film 1999 yil Moskvada o'tkazilgan bolalar animasion kinosi Xalqaro festivalining "Eng mehribon film" nominatsiyasiga sazovor bo'lib, bosh sovrin "Oltin baliqcha" (Zolotaya ribka) bilan taqdirlangan.

XULOSA

Bugungi kunga qadar ijodkor M.Mahmudov 50 ga yaqin multiplikasion filmlar yaratgan. "Aldangan aldoqchilar" (1977), "Sehrlangan kema" (1977), debyut filmi «Lochin va Yulduz xaqida ballada» (1978), "Sahrodagi ko'l" (1979), "Bo'lgan voqea" (1979), «Sehrlil samovar» (1980), «Xo'ja Nasriddin» (1982), «Qorbola» (1984), "Farrux va Zumrad" (1985), «Kunlarning birida saxroda» (1986), "Topishmoqlar kuni" (1987), «Ot» (1988), «Billiard tarixi» (1989), «Baxtli shaxzoda» (1991), "Ikki jin" (1992), «Sindbodning sarguzashtlari» (1994) kabilar shular jumlasidandir.

Tasvir ustasi M.Mahmudov multstudiyada film yaratish bilan birga mazkur oliy ta'lim muassasalarida soha bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarga multiplikasiya san'atining sir-asrorlari va mashaqqatli jarayonlarini o'rgatib kelmoqda. Bugungi kunda ustozning ko'plab iste'dodli shogirdlari respublikamizning turli multstudiyalarida ijodiy faoliyat yuritib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.A.Volkov. Multiplikasioniy film. «Znanie». Moskva.1974. – S.16.
2. I.V.Vaysfeld. Iskusstvo v dvijenii: Sovremenniy proses: issledovaniya, razmishleniya. M.: Iskusstvo.1981.S.17.
3. X.Abulqosimova Kinoteleradio tarixi va nazariyasi (Kino asoslari); –T.: O'quv qo'llanma. 2008. –T.: B.11.
4. Mirzamuxamedova M. O'zbekistonda bolalar kinosi. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at. –T. 1976.-B.42.
5. Multiplikator, rejissyor, rassom M.Mahmudov bilan suhbat. 2018 yil 21 fevral.
6. O'zbekiston san'ati (1991-2001 yillar) //Tahrir hay'ati: H. Karamatov, N. Jo'raev, T. Qo'ziev va boshqalar: Ilmiy muharrir: A. Hakimov. – T.: Sharq, 2001. – B. 240.
7. «Xalq so'zi» gazetasining 2017 yil 8 avgustdagi 155 (6849)-soni.